



№9 Ma`ruza

TEMIR YO`L TRANSPORTINING TABIIY RESURSLARGA TA`SIRI, UNING DARAJALARI VA IFLOSLANTIRUVCHI MANBAALARNING TASNIFI

REJA

- 1. Temir yo`l transportining qulayliklari haqida**
- 2. Temir yo`l transportining tabiiy resurslarga ta`sir darajasi**
- 3. Temir yo`l transporti ning tabiiy resurslarni ifloslantiruvchi manbaalari**
- 4. Temir yo`l transporti tasirida ekotizimning o`zgarishi**

*Lektor: T.f.d., Ekologiya va hayot xavfsizligi xalqaro
fanlar akademiyasi a`zosi Jumayeva D.J.*

Ekologik aforizmlar



“...2015-2019 yillarda muhandislik kommunikatsiya va yo‘l-transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish va rivojlantirish dasturining asosiy qoida va yo‘nalishlarini so‘zsiz bajarish bo‘yicha boshlangan ishlarni keyingi yillarda ham davom ettirish eng muhim vazifamizdir.”

I.A.Karimov

Temir yo`l transportining qulayliklari haqida

Katta hajmdagi yuklarni tashish, fuqarolarga xavfsiz va sifatli transport xizmati ko'rsatishda temir yo'llar muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda mamlakatimizda yuklarning 70 foizi, yo'lovchilarning 60 foizdan ortig'i aynan ana shu po'lat izlar orqali tashilayotgani ham buning isbotidir. Mustaqillik yillarida barcha sohalarda bo'lgani kabi mamlakatimiz temir yo'l tizimida ham tub islohotlar amalga oshirildi. Temir yo'l orqali xizmat ko'rsatish sifati va salohiyati ham tubdan yaxshilanib bormoqda.



Temir yo`l transportining tabiiy resurslarga ta`sir darajasi

Temir yo'l transportida yo'lovchilarni hamda yuklarni tashish faoliyatini amalga oshirishda qonun hujjatlariga, shuningdek, yuklarni tashish qoidalariga, temir yo'l transportida yo'lovchilar, bagaj va yuk bagajlarni tashish qoidalariga hamda temir yo'lda tashishlar xavfsizligini ta'minlash sohasida texnik tartibga solish, temir yo'l transportining harakatlanuvchi tarkibi, ob'ektlari va texnik vositalarini saqlash, ta'mirlash, ularga xizmat ko'rsatish va ulardan foydalanish sohasidagi normativ hujjatlarga rioya qilinishi shart.



Temir yo`l transportining tabiiy resurslarga ta`sir darajasi

Temir yo`l transportining atrof-muhitga ta`sirining tabiati textogen omillarning ta`siri, ularning tasirining intensevligi tabiatning elementlariga tasirining ekologik og`irligi bilan belgilanadi. textogen ta`sir bir omil yoki murakkab kompleksdan turli omillar guruhidan mahalliy bo`lishi mumkin.

Temir yo`l transporti vositalarining atrof-mhitga ta`sir ko`rsatadigan omillar quyidagi xususiyatga ko`ra tafsiflanishi mumkin;

mexanik(qattiq chiqindilar , qurilish, yo`l va boshqa mashinalar tuproqlariga mexanik ta`sir);

fizikaviy (termik radiatsiya, elektr maydonlari, shovqin, tebranish);

kimyoviy moddalar va kombinatsiyalar (kislotalar, tuzli metallar, bo`yoq va aralashmalar).



Temir yo`l transportining tabiiy resurslarga ta`sir darajasi

Temir yo`lda elektr tortishning teplovoz tortishga nisbatan ishonchli va samaradorligiga shubha yo`q. Umuman olganda, elektrovozlar oddiyroqdir, ekspluatatsiya qilish jarayonida qulayroq va ayniqsa shahar sharoitida muhim omil bo`lgan narsa- atrof muhitni kamroq ifloslantiradi.

Temir yo`l transport ob`ektining ekologik holatiga ta`siri darajasini baholash uchun quyidagi integral xarakteristikalar qo`llaniladi:

- biotsenozlar (o`simlik, hayvonot, odamlar) holatini aniq o`lchov birligida ifodalangan atrof-muhitning mutlaq ekologik yo`qotishlari
- tabiiy muvozanatni buzish xavfi, tabiiy muhitga ekologik xavf va inqiroz olib kelishi mumkin bo`lgan kutilmagan yo`qotishlar va mahalliy ekologik o`zgarishlarning paydo bo`lishi




Temir yoʻl transportining tabiiy resurslarga taʼsir darajasi

“Texnik foydalanishda temir yoʻl transporti xavfsizligi toʻgʻrisida”gi umumiy texnik reglament ishlab chiqilishi zarurati temir yoʻl transportidan foydalanishda quyidagi xavf-xatarlarning mavjudligi bilan bogʻliqdir:

-temir yoʻllar boʻylab yuk va yoʻlovchi tashish poyezdlarining harakatlanishi, bunda reglament talablari va meʼyorlarini bajarmaslik inson hayoti va sogʻligiga tahdid soluvchi, avtotransport va begona shaxslarga, uy hayvonlariga kelib urilishlarni keltirib chiqaruvchi vagonlarni relsdan tushishi, harakat tarkibining toʻqnashuvlari, favqulotda holatlarning yuzaga kelishi;

- temir yoʻl transportidan foydalanishda atmosferaga zararli moddalarni chiqishi, suv va yerni ifloslantirish, temir yoʻllarning elektrlashtirilgan uchastkalarida – elektr magnit maydoni taʼsiri, insonlar va atrof-muhitga xavfli yuklar orqali ularni tashishda toʻkilishi va sochilishi bilan bogʻliq boʻlgan ekologik xavf;




Temir yo`l transporti ning tabiiy resurslarni ifloslantiruvchi manbaalar

- yuklarni yonishi, yo'lovchi tashish poyezdlari vagonlarida yong'inga qarshi qoidalarining buzilishi oqibatida yong'in xavfi;
- ishlab chiqarish travmatizmi yoki kasb kasalliklariga olib keluvchi temir yo'l transportining zararli ishlab chiqarish omillarining inson sog'lig'iga ta'siri;
- insonlarni, hayvonlarni, qushlarni va oziq-ovqat mahsulotlarini tashishda sanitariya-epidemiologiya, veterinariya-sanitariya va fitosanitariya talablarini buzilishi bilan bog'liq xavf.



Temir yo`l transporti ning tabiiy resurslarni ifloslantiruvchi manbaalar

Tashish xavfsizligi me'yorlarni qat'iy bajarishda yuqorida ko'rsatib o'tilgan omillarni maksimal darajada kamaytirish va ularni butunlay bartaraf etish talab etiladi. Temir yo`l transporti uchun texnik reglamentda yong'in xavfsizligi, elektr xavfsizligi, sanitariya-epidemiologik xavfsizligi, ekologik xavfsizlik talablari, foydalanishga topshirishda temir yo`l transporti infratuzilmasi va uning tarkibiy qismlari xavfsizligi talablarining muvofiqligini baholash mezonlari, temir yo`l transporti xavfsizligi sohasidagi talablarga rioya qilinishini nazorat qiluvchi davlat organlari ro'yxati, temir yo`l transportida xavfsizlik sohasidagi talablarga rioya qilinishi davlat nazoratini amalga oshirish tartiblari, temir yo`l transportida tabiatni muhofaza qilish sohasidagi talablarga rioya qilish davlat nazorati va nozirligini amalga oshirish yo'llari belgilab berilgan.



Temir yo`l transporti ning tabiiy resurslarni ifloslantiruvchi manbaalar

“O‘zdavtemiryo‘lnazorat” inspeksiyasining Toshkent, Qo‘qon, Buxoro, Nukus va Qashqadaryo filiallari xodimlari tomonidan mamlakatimizdagi temir yo‘l korxonalarini vakillari bilan birgalikda umumiy texnik reglamentni amalda qo‘llash masalalari bo‘yicha seminarlarda, ommaviy axbort vositalarida chiqishlar tashkil etilmoqda. Qonun hujjatlariga kiritilgan o‘zgartishlar, texnik reglamentda belgilangan me‘yorlar, avvalo, fuqarolarning hayoti va xavfsizligini ta‘minlash, temir yo‘llarda xizmat ko‘rsatish sifatini yanada yuksaltirishga qaratilgandir. Bunday ezgu ishlarga hissa qo‘shish esa barchamizning burchimizdir.



Temir yo`l transporti ning tabiiy resurslarni ifloslantiruvchi manbaalar

O`zbekiston Respublikasi temir yo`llarda yuk va yo`lovchilar tashish xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi barcha manfaatdor davlat va xo`jalik boshqaruvi organlari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub`ektlari, temir yo`l transporti sohasida faoliyat ko`rsatayotgan boshqa tashkilotlarni temir yo`l transporti xavfsizligini ta`minlashga qaratilgan talablardan keng xabardor qilish maqsadida inspeksiyaning www.rwnadzor.uz veb-saytiga "Texnik foydalanishda temir yo`l transporti xavfsizligi to`g`risida"gi umumiy texnik reglament matni va uni amalda qo`llash shartlariga oid sharhlar joylashtirgan



Temir yo' l transporti ta`sirida ekotizimning o'zgarishi

Atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha strategic xujjatlarda asosiy maqsad etib belgilangan vazifalardan biri - temir yo'l transportida ifloslantiruvchi moddalar tashlamalarini kamaytirish, temir yo'l transporti ta`sirida ekotizimning o'zgarishiga ta`sirni kamaytirish chora tadbirlarini amalga oshirishdan iboratdir.

Temir yo'l transporti ekologiyasi rivojlanishining ta'sirini kamaytirish va tabiatga zararli ta'sir ko'rsatmaydigan texnologik jarayonlarni qo'llashda quyidagilarni inobatga olish lozim:



Temir yo`l transporti ning tabiiy resurslarni ifloslantiruvchi manbaalar

- Suvdan foydalanishning yopiq tizimlarini, shuningdek havoni tozalash tizimlarini yaratish;
- chiqindilarasiz va kam chiqindili texnologiyalarni yaratish orqali resurslarni sarflashni optimallashtirish;
- quyosh, shamol, terma yer osti suvlari energiyasini tubdan oshirish va takomillashtirish;
- har xil turdagi ifloslanishlardan ishlab chiqarishning har bir turi uchun atrof-muhitni muhofaza qilish vositalarini yaratish;
- ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun chiqindilarni ikkinchi darajali iste'mol qilish;
- shuningdek ularni mahalliy faoliyatda foydalanish uchun qayta ishlash



Mavzu yuzasidan savollar:

- 1. Temir yo`l transportining qulayliklari nimalardan iborat?**
- 2. Temir yo`l transportining tabiiy resurslarga ta`sir darajasi qanday izohlanadi?**
- 3. Temir yo`l transporti ning tabiiy resurslarni ifloslantiruvchi manbaalarga nimalar kiradi?**
- 4. Temir yo`l transporti tasirida ekotizimning o'zgarishini asoslab bering?**



A close-up photograph of a bouquet of light pink roses. The roses are the central focus, surrounded by small white baby's breath flowers and silver, curly ribbons. The background is dark and out of focus.

***E`tiboringiz uchun
tashakkur***